

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.19/04.07.2023.1.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

XABIBULLAYEVA SHIRINXON TOXIR QIZI

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract for Doctor of Philosophy (PhD)
in Economic Sciences**

Xabibullaeva Shirinxon Toxir qizi

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish.....3

Хабибуллаева Ширинхон Тохир кизи

Совершенствование корпоративного управления в акционерных обществах на основе цифровых технологий.....25

Khabibullaeva Shirinkhon Tokhir kizi

Improvement of corporate governance in joint-stock companies based on digital technologies49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications.....55

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.19/04.07.2023.1.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

XABIBULLAYEVA SHIRINXON TOXIR QIZI

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2358 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.rgsbm.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Suyunov Dilmurod Xolmurodovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kenjabayev Aman Turgunovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Gulyamov Saidahror Saidahmedovich
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

Yetakchi tashkilot:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.19/04.07.2023.1.88.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__» ____ kuni soat ____ dari majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod ko‘chasi, 25-uy. Tel.: (99871) 239-03-05; faks: (99871) 239-03-03; e-mail: info@rgsbm.uz.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod ko‘chasi, 25-uy. Tel.: (99871) 239-03-05; faks: (99871) 239-03-03; e-mail: info@rgsbm.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» ____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «__» ____ dari ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.U. Berdinazarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

T.U. Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

A.T. Kenjabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida korporativ boshqaruvni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish jadal rivojlanish tendensiyasini namoyon etmoqda. OECD ma'lumotlariga ko'ra, raqamlashtirish bozor nazorati va korporativ boshqaruv talablarini amalga oshirish samaradorligini oshirish, aksiyadorlarning umumiyligini yig'ilishlarida masofaviy ishtirokni va axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Yevropa Ittifoqining 2020-yilgi raqamli iqtisodiyot va jamiyat indeksiga ko'ra, biznesda raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi mamlakatlar o'rtasida farq qiladi. Finlyandiya, Niderlandiya va Belgiya kabi mamlakatlar yetakchi bo'lib, raqamli texnologiyalarni keng joriy etgan, shu jumladan, elektron axborot almashinuvi, ijtimoiy media, katta ma'lumotlar tahlili va bulutli xizmatlardan foydalanish sohalarida yuqori ko'rsatkichlarga ega¹. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra korporativ boshqaruv kodeksi va qoidalarini joriy etish mexanizmlari 2015-2021-yillar davomida deyarli 84 foiz aksiyadorlik jamiyatlarida qayta ko'rib chiqilgan bo'lsa, 10 foizi ma'lum moslashuvchan mexanizmlarni qo'llagan, 6 foizi esa o'zgartirmagan².

Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va mutaxassislar tomonidan sanoati tarmoqlari, hususan kimyo sanoati tarmog'ida korporativ boshqaruvning institusional va funksional mexanizmlarini takomillashtirish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, kimyo sanoati tarmog'idagi aksiyadorlik jamiyatlarining samarali faoliyatini ta'minlash, aksiyadorlarning manfaatlari to'laqonli bo'lishini kafolatlash, korporativ boshqaruv bo'yicha zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etish, Kengashlar faoliyatini samarali tashkil etish, institusional investorlar uchun qat'iy talablar va kompaniyalarga tegishli tomonlar bilan operatsiyalarni oshkor qilishni yaxshilash, korporativ boshqaruv tuzilmalarini raqamli iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish yo'nalishlarida tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tarkibida aksiyadorlik jamiyatlar faoliyati, jumladan ularning institusional va funksional mexanizmlarini takomillashtirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSH dollaridan 7 milliard AQSH dollariga yetkazish, kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish»³ vazifalari belgilab berilgan. Bundan kelib chiqqan holda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni joriy etishda qonunchilik-me'yoriy bazasini yanada takomillashtirish, davlatning ishtirokini kamaytirib borish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va raqamli ma'lumotlarni qayta ishlash vositalari orqali qaror qabul qilish jarayonlarini

¹ https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3635068&utm_source

² OECD Corporate Governance Factbook 2021. <https://www.oecd.org/corporate/Corporate-Governance-Factbook-Chapter-4.pdf>.

³ Ўзбекистон Республикасининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” Фармони, 2022 йил 28 январь, ПФ-60. www.lex.uz

tezkorlashtirish, boshqaruv jarayonlarining shaffofligini oshirish, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni samarali tashkil etish hamda tashkilotning strategik maqsadlariga erishishni ta’minlovchi zamonaviy boshqaruv amaliyotini taklif etish, aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv organlari faoliyatining mustaqilligi va fond bozorlarida erkin harakatlarini ta’minlash, raqamli platformalar asosida aksiyadorlik kengashlari faoliyatini shaffof va bozor tamoyillari asosida qarorlar qabul qilishini ta’minlash, aksiyadorlik jamiyatlarida ijro organlari faoliyati samaradorligini oshirish, kuzatuv kengashlari faoliyati samaradorligini baholashga qaratilgan ilmiy-uslubiy asoslar ishlab chiqish yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2015-yil 21-dekabrdagi PQ-2454-son “Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalg etishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy-ma’rifiy rivojlanadirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy jihatlari xorijlik olimlardan, T.Veblen, C.Mills, P.Vernimmen, P.Quiry, Y.Le Fur, T.Lien, F.Nakpodia, E.Adegbite, F.Ashiru, J.Cornelissen, S.Turnbull, R.Visconti, F.Ricci⁴, MDH olimlaridan S.Kukura, I.Ansof, I.Belikov, A.Dementyeva, O.Kavyrshina, V.Mixaylov, R.Kravchenko, O.Makarova, S.Masyutin, T.Pochekaylo, A.Radygin, I.Tkachenko, I.Xrabrova, N. Trofimova, T. Salyutina, G.Platuninalar⁵, mamlakatimiz olimlaridan

4 Веблен Т. Теория праздного класса. – Litres, 2022.; Veblen T., Mills C. W. The theory of the leisure class. – Routledge, 2017.; Vernimmen P., Quiry P., Le Fur Y. Corporate finance: theory and practice. – John Wiley & Sons, 2022., Lien T. T. H. Ways Forward: Corporate Governance Policies //Board Directors, Financial Derivatives, and Corporate Governance: The Case of Vietnam. – Springer, Singapore, 2022. – С. 175-210.; Nakpodia F., Adegbite E., Ashiru F. Corporate governance regulation: a practice theory perspective //Accounting Forum. – Routledge, 2021. – С. 1-26.; Cornelissen J. Corporate communication: A guide to theory and practice. – Sage, 2020.; Turnbull S. Corporate governance: Its scope, concerns and theories //Corporate governance. – Gower, 2019. – С. 415-440.; Moro Visconti R. Network corporate governance: Information and risk-return sharing of connected stakeholders //New Challenges in Corporate Governance: Theory and Practice. – 2019. – №. 5. – С. 1-20.; Ricci F. et al. The concept of board capital in corporate governance research: A structured literature review //New challenges in corporate governance: Theory and practice. – 2019. – С. 333-348.

5 Ансоф И. Новая корпоративная стратегия. – СПб: Питер Ком, 1999. – 416 с.; Кукура, Сергей Петрович. "Теория корпоративного управления." (2004).; Беликов, Игорь Вячеславович, and Александр Захарович Астапович. "Корпоративное управление и экономический рост в России." (2004).; Дементьева, Алла Геннадиевна. "Основы корпоративного управления." (2009): 9776-9776.; Кавыршина О. А., Букреев А. М. Экономический механизм корпоративного управления //монография/ОА Кавыршина, АМ Букреев.-Воронеж: Научная книга,-2007.-176 с. – 2007.; Михайлов В. В. Формирование и развитие организационно-экономического механизма корпоративного управления в промышленности. – 2004.; Макарова, Ольга

Berkinov B.B., Xodiyev B.Yu., Xamidulin M.B., Suyunov D.X., Voxidov M.M., Gulyamov S.S., Zaynudinov Sh.N., Rahimova D.N., Karimov A.A., Karlibayeva R.X., Rasulov N.M., Ashurov Z.A., Xoshimov A.A., Yaushev R., Elmirmazayev S.E., Urinov B.N., Umarxodjayeva M.G., Shermuxamedov A.K., Kayumova M.Sh. va boshqalarning tadqiqotlarida yoritilgan⁶.

Korporativ boshqaruvda raqamli texnologiyalarni samarali qo'llashning nazariy va amaliy asoslari xorijlik olimlar I.Bejnar, J.I.Igvilo, P.Konseysao, S.Margea, N.Monchev, V.D.Xartman, R.Fostr, Frank N.Webster, A.Dinis, Y.Hsu, P.N.Zavlin, L.P.Goncharenko, L.S.Blexman, S.V.Valdaytsyev, L.M.Goxberg, P.Druker, A.K.Kazansyev, B.Z.Milner, K.Oppenlender, B.Santo, B.Tviss, Yu.V.Yakovetslar kabilar tomonidan o'rganilgan.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari o'zbekistonlik olimlardan A.T.Kenjabayev, I.Abduraimov, A.M.Kadirov, Sh.I.Otajanov, M.A.Mahkamova, Sh.I.Mustafakulov, O.F.Aliqoriyev, N.F.Gulomova, Sh.A.Mirsaidova, R.I.Nurimbetov, B.B.Abdullayev, B.S.Kalmuratov va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.⁷

Александровна. Корпоративное право. Учебник. Wolters Kluwer Russia, 2005.; Масютин, Святослав Анатольевич. "Корпоративное управление: опыт и проблемы." (2003).; Почекайло Т. Н. Формирование организационно-экономического механизма корпоративного управления: дис. – Тюменский государственный университет, 2006.; Ткаченко, Ирина Николаевна. "Корпоративное управление." (2018).; Храброва И. А. Корпоративное управление: вопросы интеграторов //М.: Альпина. – 2000. – С. 15.; Трофимова Н. Н. Ключевые проблемы современного корпоративного управления предприятиями реального сектора экономики //Стратегии бизнеса, 2020. – Т. 8. – №. 3. – С. 70-74.; Салютина Т. Ю., Платунина Г. П. Выявление и анализ факторов, влияющих на эффективность корпоративного управления. //Мобильный бизнес: Перспективы развития и реализации систем радиосвязи в россии и за рубежом, 2020. – С. 52-55.

6 Беркинов Б.Б. Корпоративные структуры (Основы создания и управления). – Т.: Изд-во Нац. б-ки Узбекистана им. А.Наваи, 2005. – 132 с.; Вохидов М.М. Ўзбекистон акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув тизимиning ҳукукий муаммолари ва такомиллаштириш йўллари: Юрид. фан. номз.... дисс. иши. – Т.: ТДЮИ, 2007. – 171 б.; Гулямов С.С. Правовые проблемы корпоративного управления: теория и практика. Монография. – Т.: ТГЮИ, 2004. – 271 с.; Зайнуддинов И. Акциядорлик жамияти жорий молиявий активларини бошқариш самараадорлигини ошириш. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, ТДИУ. 2022 йил.; Зайнутдинов Ш.Н., Раҳимова Д.Н. Корпоратив бошқарув асослари. – Т.: Академия, 2007. – 48 б.; Каримов А.А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия хисоби ва аудитни такомиллаштиришнинг асосий ўйналишлари: Иқт. фан. док. ... дисс. автореф. – Т.: ЎЗР БМА, 2008. – 34 б.; Карлибаева Р. Совершенствования системы корпоративного управления в узбекистане. //Архив научных исследований. – 2020. – Т. 35.; Расулов Н. Корпоратив тузилмаларда инноватсия жараёнларни стратегик бошқариш услубиётини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати – Т.: ТДИУ, 2021 - 155 б.; Суюнов Д.Х. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т.: Академия, 2006. – 116 б.; Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления. Монография. – Т.: Молия, 2008. – 204 с.; Ходиев Б.Ю., Беркинов Б.Б. Корпоратив бошқарув: ўкув кўлланма. – Т.: ADIB, 2010. – 190 б.; Хошимов А.А. Ўзбекистонда интеграторларни корпоративларни бошқариш. Монография. – Т.: Фан, 2007. – 299 б.; Яушев Р. Сущность и задачи формирования корпоративного управления. // Рынок ценных бумаг. – Ташкент, 2001. - №5. – С. 2-4.; Elmirmazayev S.E. Zamonaviy korporativ boshqaruv: / Darslik - Т.: "Iqtisod-moliya", 2019. - 416 б.; Urinov B.N., Umarxodjayeva M.G., A.K.Shermuhamedov, Kayumova M.Sh. Korporativ madaniyat. Darslik. – Т.: «Innovacion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021. – 204 б.

7 А.Т.Кенжабаев, D.X.Suyunov. Elektron tijorat. Darslik. -Т., 2022. –314 б.; Завлин П. Н., Васильев А. В. Оценка эффективности инноваций. – 1998., Гончаренко Л. П., Артуюнов Ю.А., Инновации., Управление инновационным бизнесом — М.: ЮНИТИ, 2001., Гохберг Л.М., Экономика знаний онная политика –М.: КНОРУС, 2009.-352.; Валдайцев С. В в терминах статистики: наука, технологии, инновации, информационное общество./ М.: Экономика, 2012., Друкер П. Новый бизнес.- М.: Экономика, 1993г., Казанцев А.К.Информационные технологии в управлении, производстве, жизнедеятельности Тюмень.: Ист Консалтинг, 2010г., Мильнер Б. З., Катьяло В. С., Орлова Т. М., доктора экон. наук, профессора и др.; Управление знаниями в инновационной экономике: учебник по специальности «Менеджмент организаций» — Москва: Экономика, 2009. — 598,[1] с. ISBN 978-5-282-02982-6., Оппенлендер К. Технический прогресс:

Ko‘rsatib o‘tilgan tadqiqotchilarning menejment faniga qo‘sghan salmoqli hissasiga qaramay, kimyo sanoatida korporativ boshqaruvni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishning o‘ziga xos tomonlari, korporativ boshqaruvda raqamli platformalarni tadbiq etish masalalari yetarlicha tadqiq etilmaganligi mavzusining tanlanishiga sabab bo‘lgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi kompleks ilmiy tadqiqot rejasi doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi raqamli texnologiyalar asosida kimyo sanoati tarmog‘ida korporativ boshqaruvning institusional va funksional mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

raqamli transformatsiyaning zamonaviy menejmentda boshqaruva qarorlarini ishlab chiqishga ta’sirini o‘rganish;

iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida korporativ boshqaruvda qarorlar qabul qilishga doir ilmiy-nazariy yondoshuvlarni tahlil qilish;

kimyo sanoati tarmog‘idagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlil asosida aniqlash;

aksiyadorlik jamiyatlar korporativ boshqaruvida raqamli texnologiyalardan foydalanish yo‘llari bo‘yicha takliflar berish;

kimyo sanoat korxonalarida korporativ munosabatlар ishtiroychilar o‘rtasida raqamli platforma orqali samarali hamkorlikni tashkil etish mexanizmini takomillashtirish;

“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyat korporativ boshqaruvini raqamlashtirish asosida 2030-yilgacha rivojlanish prognoz senariylarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib «O‘zkimyosanoat» aksiyadorlik jamiyatini va uning tarkibidagi aksiyadorlik jamiyatlarini hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida kimyo sanoati tarmog‘ida korporativ boshqaruvni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish jarayonlarida yuzaga keluvchi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlар olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va qiyoslash, faraz va isbotlash, tizimli, iqtisodiy, statistik va ekonometrik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondoshuvga ko‘ra “korporativ boshqaruvni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish” tushunchasiga mualliflik ta’rifi korporativ tashkilotlarda raqamli texnologiyalar yordamida qaror qabul qilish jarayonlarini tezkorlashtirish, boshqaruv jarayonlarining shaffofligini oshirish, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni samarali tashkil etish hamda tashkilotning strategik maqsadlariga

воздействие, оценки, результаты: Сокр.пер.с нем.,- М. : Экономика, 175 с.,1981г., Санто Б. Сила инновационного саморазвития, / Инновация №2,2014., Твисс Б. Managing Technological Innovation ,Книга, Брайан Твис, 1974г., Яковец Ю.В. Глобальные экономические трансформации XXI века – М.: Экономика, 2011. – 382 с.

erishishni ta'minlovchi zamonaviy boshqaruv amaliyoti nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

kimyo sanoatidagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichi (CAPM) ga moliyaviy faoliyat xarajatlari, zahira kapitali, soliq to'lagunga qadar foyda, investitsion kapital va debitorlik qarzlarining ta'sirini ekonometrik baholash asosida, raqamli texnologiyalarni korporativ boshqaruv jarayonlariga joriy etish orqali ushbu omillar ta'sirini optimallashtirish va samaradorlikni oshirish imkoniyati ilmiy asoslab berilgan;

PSL-SEM algoritmi asosida «O'zkimyosanoat» aksiyadorlik jamiyatlarining kuzatuv kengashlari faoliyati samaradorligini baholash jarayonida, ularning taftish funksiyasi ijobjiy, operasion faoliyati va raqamli texnologiyalarning ta'sir doirasi salbiy ta'sirga ega ekanligi aniqlash orqali kuzatuv kengashlari faoliyatiga ta'sir etuvchi yashirin omillar tizimlashtirilgan va ularni tartibga solish taklifi asoslangan;

korporativ boshqaruvini raqamlashtirish asosida “O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatining 2030-yilgacha rivojlanish prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yirik va minoritar aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyati faoliyati to'g'risida axborot olish usullari, doirasi va imkoniyatlarini kengaytirishning “yagona tizim” tamoyilini joriy etish taklif etilgan;

kimyo sanoatida korporativ tuzilmalarni xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan tizimlarini joriy etishda xodimlar qo'nimchizligini oldini olishga qaratilgan aktiv va passiv strategiyalar taklif etilgan;

aksiyadorlik jamityalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va raqamli ma'lumotlarni qayta ishslash vositalari orqali qaror qabul qilish jarayonlarini tezkorlashtirish taklif etilgan;

kimyo sanoatidagi korxonalarda boshqaruv jarayonlarining shaffofligini oshirish, manfaatdor tomonlar o'rtaсидagi o'zaro aloqalarni samarali tashkil etish hamda tashkilotning strategik maqsadlariga erishishni ta'minlovchi zamonaviy raqamli boshqaruv amaliyoti taklif etilgan;

kimyo sanoati tarmog'idagi korporativ tuzilmalar faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida korporativ maslahatchi faoliyatini avtomatlashtirish konsepsiysi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Qo'llanilgan yondashuvning maqsadga muvofiqligi, natijalarining ishonchliligi tadqiqot doirasida foydalanilgan nazariy tahlillar rasmiy manbalardan olinganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi va «O'zkimyosanoat» AJ va uning tizimidagi xo'jalik subyektlarining ma'lumotlariga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotda joriy etilganligi, olingen natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati korporativ boshqaruvni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslarni kengaytirish, kimyo sanoati tarmog'idagi korporativ tuzilmalarning boshqaruv organlari, nazorat organlari,

dasturlari hamda axborotlarni oshkor etishning me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kimyo sanoati tarmog‘ida korporativ boshqaruvni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish, «Korporativ boshqaruv kodeksi»ga oid me'yoriy tartib-qoidalarni ishlab chiqish va amalga joriy etish, aksiyadorlik kapitali tarkibida davlat ishtirokini soddalashtirish uslullarini ishlab chiqish, takomillashtirish, aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv organlari, nazorat organlarining roli va ahamiyatini oshirishning me'yoriy mexanizmlarini mustahkamlash, Kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli platformalardan unumli foydalanish, oliy ta’lim muassasalarida «Korporativ boshqaruv», «Korporativ strategiya», «Raqamli biznesni boshqarish» kabi fanlardan darslik va o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kimyo sanoati tarmog‘idagi korporativ boshqaruvni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

uslubiy yondoshuvga ko‘ra “korporativ boshqaruvni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish” tushunchasi korporativ tashkilotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va raqamli ma’lumotlarni qayta ishlash vositalari orqali qaror qabul qilish jarayonlarini tezkorlashtirish, boshqaruv jarayonlarining shaffofligini oshirish, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni samarali tashkil etish hamda tashkilotning strategik maqsadlariga erishishni ta’minlovchi zamonaviy boshqaruv amaliyoti nuqtai nazaridan takomillashtirish taklifi «O’zkimyosanoat» AJ tomonidan amaliyotga (2025-yil 28-maydagi 22-285-sonli ma’lumotnoma) joriy qilindi. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “O’zkimyosanoat” AJ tarkibidagi aksiyadorlik jamiyatlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va raqamli ma’lumotlarni qayta ishlash vositalari orqali qaror qabul qilish jarayonlarini tezkorlashtirish, boshqaruv jarayonlarining shaffofligini oshirish, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni samarali tashkil etish tushunchasidan tarmoq va korxonalar faoliyat konsepsiyasini ishlab chiqishda, tizimning barcha rahbarlari va xodimlarining malaka oshirishi jarayonida ularning nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini yanada kengaytirishga imkon yaratilgan;

kimyo sanoatidagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruv samaradorligi ko‘rsatkichi capmga moliyaviy faoliyat xarajatlar [-0,051], zahira kapital [0,16], soliq to‘lagunga qadar foyda [0,02], invested capital [0,081], debitorlik qarzlari [-0,106] larning ta’sir koeffisiyentlarini asoslashga oid taklifi «o’zkimyosanoat»aj tomonidan amaliyotga (2025-yil 28-maydagi 22-285-sonli ma’lumotnoma) joriy etilishi natijasida “Navoiyazot” aj korporativ boshqaruv samaradorligini 10 foizga yoki 15,3 mlrd. So‘mga oshirishga, korxona faoliyatini bozor talablariga ko‘ra muvofiqlikka erishish, tashqi muhitga moslashtirish, yuk tashish imkoniyatlarini hisobga olish va optimal foyda hajmini 8 foizga yoki 23,5

mlrd. So‘mga oshirish imkoni yaratilgan. Bu esa korxonaning bozor talablariga moslashish, raqobatbardoshligini oshirish, qo‘sishimcha ish o‘rinlarini yaratish va ishchi-xodimlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni yaxshilash imkonini yaratadi;

“O‘zkimyosanoat” AJning korporativ boshqaruv tizimida PSL-SEM algoritmi asosida kengash operasjon faoliyatining salbiy ($f_2=-0,174$), kengashning taftish funksiyasi ijobiy ($f_3=0,166$), kengashga raqamli texnologiyalarning ta’sir doirasi salbiy ($f_4=-0,203$) ta’sirlarini aniqlash orqali kuzatuv kengashining boshqaruv darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi yashirin omillarni tartibga solish taklifi «O‘zkimyosanoat» AJ tomonidan amaliyotga (2025-yil 28-maydagi 22-285-sonli ma’lumotnama) joriy qilindi. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “Navoiyyazot” AJda raqamli platformalardan foydalanish asosida korxonani rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirish va yashirin omillar aniqlangani tufayli boshqaruvning shaffofligini oshirish imkoni yaratilgan;

korporativ boshqaruvini raqamlashtirish asosida “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatining 2030-yilgacha rivojlanish prognoz ko‘rsatkichlari taklifi «O‘zkimyosanoat» AJ tomonidan amaliyotga (2025-yil 28-maydagi 22-285-sonli ma’lumotnama) joriy etilishi natijasida sof foydaning 9,88 foizga o‘sishi aniqlanib, korporativ boshqaruvni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish bo‘yicha uzoq istiqboldagi ko‘rsatkichlarining o‘zaro muvofiqligini ta’minlash imkoni yaratilgan. Bu davlat byudjeti uchun soliq tushumlarining o‘sishiga, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, infratuzilmaga qo‘sishma investitsiyalar kiritish, ilg‘or texnologiyalarni jalb qilish va yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2ta respublika va 5ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 3 ta, xalqaro nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy anjumanlarda 7 ta ma’ruza va tezislar nashr etilgan.

Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, uning hajmi 150 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi va ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning ilmiy-nazariy jihatlari**» deb nomlangan birinchi bobida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni rivojlantirishga ilmiy-nazariy yondashuvlar o‘rganilgan, raqamli transformatsiyaning zamonaviy menejmentda boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga ta’siri nazariy tajqiq etilgan, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida korporativ boshqaruvda qarorlar qabul qilishga doir ilmiy-nazariy yondashuvlar tizimlashtirilgan.

O‘zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini ilmiy asosda shakllantirish va takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotlar bir-birini to‘ldiruvchi va sohaning turli qirralarini qamrab olgan. Ularni barchasi yagona g‘oya - korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish orqali tarmoq va tarmoqlararo iqtisodiy samaradorlikka erishishga asoslangan.

1-jadval

Korporativ boshqaruv va raqamli tehnologiyalarga mahalliy va horijiy oslimlarning ilmiy yondashuvlari

Tadqiqotchi	Asosiy yo‘nalish	Yondoshuv xususiyati	Ta’sir doirasi
A. Karimov	Buxgalteriya va auditni joriy etish	Texnik va moliyaviy nazorat mexanizmi	Moliyaviy hisobotlar sifati
B. Berkinov	Iqtisodiy mexanizmlar	Tarmoqlararo iqtisodiy samaradorlik	Korxonalar foydasi va ishlab chiqarish
D. Suyunov	Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar	Institusional va nazariy yondashuv	Milliy korporativ model
N. Rasulov	Innovasion rivojlanish tahlili	Sanoat sohalariga ixtisoslashgan	Innovatsiya va raqobatbardoshlik
A.Ismailov	Institusional mexanizm	Kimyo sanoatiga ixtisoslashgan	Huquqiy-me’yoriy
N. Aripova	KPI va ESG ko‘rsatkichlari	Don mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoatiga ixtisoslashgan	Moliyaviy va boshqaruv hisobi
S. G’ulomov	Raqamli iqtidosiyot	Raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslari	Platformalar va biznes ekotizimlar
Z.Tolametova	Infratuzilma, huquqiy va moliyaviy vositalari	Davlat siyosatining raqamli biznes va startapga qaratiladigan chora tadbirlari	Raqamli tadbirkorlik ekotizimi
O. Umarov	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish tendensiyalari	Iqtisodiyotni raqamlashtirishni hisobga olgan holda iqtisodiyotni oqilona yaratish modeli	Axborot kommunikaciya tehnologiyalari
D.M.Mirzaaxmedov	Global bozorlar transformatsiyasiga raqamli platformalarni tadbig‘i	Global raqamli platformalarning biznes modellari va ularning xalqaro bozorlardagi strategik o‘rni	Global bozor
A.Abidov	Raqamli platformali biznes ekspantsiyasi	Raqamli platformalarni shakllantirishning asosiy yondashivi va amaliyoti	Kichik biznes
Jiang (2024)	Mashina o‘rganish, blokcheyn, intellektual shartnomalar	Mashina o‘rganish va gen SI vositalari bilan korporativ boshqaruvni qayta shakllantirish, axborot asimmetriyasini kamaytirish	Keng, korporativ boshqaruv jarayonlari va texnologiya platformalariga ta’sir
Ouabouch & Yahyaoui	(SI)	SI orqali qaror qabul qilish samaradorligi va shaffoflikni oshirish, algoritmlarning muqobiligi va etik tahdidlar	Tashkiliy darajadagi qarorlar va rahbarlik
Aleksandr Guerrero	Rasionallashtirilgan korporativ boshqaruv tizimi	Technology Management, Innovation Management va Digital Transformation asosida umumiy tizim modeli (GCMS+)	Ishlab chiqarishdan strategik boshqaruvgacha bo‘lgan keng doiraga ta’sir


“Korporativ boshqaruvni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish” tushunchasiga ta’rif ishlab chiqish zaruriyati korporativ jarayonlarda raqamlashtirishning mazmun va vazifalarini aniq belgilab, uning samaradorlikka ta’sirini ilmiy asosda baholash imkonini yaratish bilan asoslanadi.

Muallifning fikricha, “korporativ boshqaruvni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish” - bu korporativ tashkilotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va raqamli ma'lumotlarni qayta ishlash vositalari orqali qaror qabul qilish jarayonlarini tezkorlashtirish, boshqaruv jarayonlarining shaffofligini oshirish, manfaatdor tomonlar o’rtasidagi o’zaro aloqalarni samarali tashkil etish hamda tashkilotning strategik maqsadlariga erishishni ta’minlovchi zamonaviy boshqaruv amaliyotidir.

Korporativ boshqaruvda ma'lumotlar tahlili va qayta ishlanishi ko‘p hollarda insonning intuitiv (hissiy tajribaga asoslangan) yondashuviga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, inson ma'lumotlarni o‘ziga “tushunarli” tarzda tizimlashtirishga harakat qilar ekan, ularni kognitiv – ya’ni ongdagi xato tushunchalar ta’siriga moyil holatga keltiradi. Ya’ni, ma'lumotlar to‘plamini to‘g‘ri va xolis tarzda jamlash va umumlashtirish qiyin bo‘ladi, chunki inson miyasi ma'lumotlarni faqat o‘z tajribasiga yaqin shaklda qayta ishlay oladi. Masalan, ma'lumotlar ba’zan faqat geografik jihatdan guruhlanishi mumkin, garchi turli hududlar o’rtasida xulq-atvor yoki natijalarda aniq farq bo‘lmasa ham, bu holat approksimatsiya tufayli ma'lumotlar tahlilida aniqlikni pasaytiradi (1-jadval).

Inson, shuningdek, elementlar o’rtasidagi oddiyroq munosabatlarni aniqlashni afzal ko‘radi: narx va sotuv hajmi, bozorga kirib borish va konversiya koeffisiyenti, kredit xavfi va daromad o’rtasidagi bog‘liqlik, hatto ma'lumotlar teskarisini ko‘rsatsa ham, chiziqli deb taxmin qilinadi.

Shu munosabat bilan texnologiyalarning rivojlanishi bilan qaror qabul qilish tizimiga turli xil amplualarda ishlashi mumkin bo‘lgan sun’iy intellekt integratsiya qilinmoqda. Quyidagi ushbu 1-rasmda tasvirlangan birinchi variant qaror qabul qilish uchun mas’ul bo‘lgan yagona element sifatida sun’iy intellektni joriy etishni nazarda tutadi va shu bilan kognitiv cheklanganlik muammosini to‘liq bartaraf etadi.




1-rasm. Sun’iy intellekt yordamida qaror qabul qilishning blok sxemasi

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimini yanada rivojlantirish qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida insonni sun’iy intellekt tizimiga almashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Algoritmlar ma'lumotlar bazasidan axborot olishning texnik vositalarini ta'minlaydi. Vazifani bajarish uchun kompyuter tomonidan ishlataladigan ko'rsatma bo'lib, algoritmlar ma'lum bir vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni topish, moslashtirish va olish uchun katta ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladi. Dasturchilar bunday ko'rsatmalarini aniq shaklda, masalan, maxsus kod yaratish orqali ifodalashlari mumkin. Bu holda odam dasturga nima va qanday qilish kerakligini ko'rsatadi, dasturlash tilida qanday kirish ma'lumotlaridan foydalanish va ularni qanday qayta ishlashni tavsiflaydi.

Shaxsning o'zi qabul qiladigan qarorlardan ko'ra samarali shablon qarorlar samaradorlikni sezilarli darajada oshirish, jumladan, boy berilgan imkoniyatlar sonini kamaytirish imkonini beradi. Sun'iy intellektidan foydalanishning ikkinchi varianti uni 2-rasmda ko'rsatilganidek, inson yordamchisi sifatida qaror qabul qilish jarayoniga kiritishdir.



2-rasm. Inson mulohazalari uchun yordamchi vositalar sifatida ma'lumotlar va sun'iy intellekt kombinatsiyasidan foydalangan holda qaror qabul qilish⁸

Shunday qilib, konseptual qoidalar yoki korporativ qadriyatlar bilan bog'liq ba'zi boshqaruv jihatlari odamlar ongidan kelib chiqadi va madaniy kanallar va boshqa raqamli bo'limgan aloqa vositalari orqali tarqaladi. Masalan, sun'iy intellekt tizimi maksimal foya olish uchun zarur zaxiralar darajasini aniq belgilashga qodir. Biroq, raqobat sharoitida menejerlar mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonining tezkorligini ta'minlash uchun yuqori darajadagi zaxiralarni qo'yishlari mumkin.

Sun'iy intellekt tizimi kompaniyaning o'z tovarlari va xizmatlarini ilgari surishga sarmoyasini oshirish zarur deb hisoblashi mumkin, chunki bunday qadam qisqa muddatli istiqbolda sezilarli foya keltiradi. Istiqbolda, biroq bunday holatda boshqaruvchilarning strategik qarashlari hisobga olinmaydi, unga muvofiq o'sishni to'xtatishga harakat qilish kerak. Natijada, sun'iy intellekt biznesni rivojlantirishning eng oqilona variantlarini taklif qiladi, ammo ular ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari, kompaniya strategiyasi yoki tashqi sharoitlarni hisobga olmasligi mumkin.

Biznes va korporativ muhitni raqamlashtirish dastaklaridan foydalanish qaror qabul qilish jarayonlarini sezilarli darajada o'zgartiradi. 2-jadvalda biznes qarorlarini qabul qilish jarayonining evolyusiyasi aks ettirilgan: ma'muriy-boshqaruv vazifalarining bir qismi bo'lib, vaqt o'tishi bilan qaror qabul qilish biznes

⁸ Muallif ishlanmasi

jarayonlarini mashina vositalari orqali avtomatlashtirish tendensiyalari bilan bog‘liq bo‘lib qoldi, keljakda esa qaror qabul qilish jarayoni mukammal mashinalar va sun’iy intellekt tomonidan amalga oshiriladi. Tashkilotlararo integratsiyaning keyingi darajasida ma’lumotlar oqimlari real vaqt rejimida o‘zaro aloqani ta’minlaydi, bu esa barcha ishtirokchilarning ish samaradorligini oshiradi.

2-jadval

Qaror qabul qilish jarayonining zamon va makon bo‘yicha rivojlanishi⁹

Qaror qabul qilish sharoiti	O’tmish	Hozirgi zamon	Kelajak
Aniqlik sharoitida qaror qabul qilish	Inson	Avtomatlashtirish	Avtomatlashtirilgan
Xavf yuzaga kelishi sharoitida qaror qabul qilish	Inson	Avtomatlashtirishning boshlanishi	Avtomatlashtirilgan
Noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish	Inson	Inson	Qisman avtomatlashtirilgan

Shunday qilib, raqamlashtirishning menejment va oddiy xodimlar qarorlariga ta’siri bilan bog‘liq tendensiya ularni qabul qilish usullarini butunlay o‘zgartiradi, keljakdagi muvaffaqiyatli tashkilotlarning asosiy ko‘rsatmalari esa moslashuvchanlik va transformatsiya qobiliyati bo‘lib, ular korporativ boshqaruva tizimini raqamli holatga o‘tkazishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Moliyaviy nuqtai nazardan, qaror qabul qilish tizimini raqamlashtirish foydani oshirishga yordam berishi kerak. Buning uchun so‘nggi yillarda turli sohalardagi kompaniyalar tomonidan katta hajmdagi ma’lumotlarni ro‘yxatga olish va qayta ishslash imkoniyatlari yaratilmoqda, ushbu ma’lumotlarni tahlil qilish va ulardan foydalanish esa maksimal foya olish uchun boshqaruva qarorlarini qabul qilishning oqilona jarayonlarini qo’llash imkonini beradi. Ushbu omil, quyida tavsiflangan boshqa ko‘plab omillar bilan bir qatorda, qaror qabul qilish tizimiga texnologiyalarni integratsiyalash zaruratinini keltirib chiqaradi.

Dissertatsiyaning «**Kimyo sanoati tarmog‘idagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruva samaradorligi tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston iqtisodiyotida kimyo sanoati tarmog‘ining o‘rni ochib berilgan, kimyo sanoati tarmog‘idagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning uning moliyaviy faoliyatiga ta’siri baholangan, kimyo sanoati tarmog‘idagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruva samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili amalga oshirilgan.

O‘zbekiston Respublikasida kimyo sanoati mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat agrosanoat, energetika, qurilish va yengil sanoat kabi ko‘plab sohalar uchun zarur xomashyo manbai, balki eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish orqali valyuta tushumini ta’minlovchi muhim yo‘nalishdir. Mamlakat sanoatining tub islohotlar bosqichiga kirgan so‘nggi o‘n yillikda kimyo sanoati ham tub tarkibiy o‘zgarishlarni boshidan kechirdi va bu holat aniq raqamlar bilan tasdiqlanadi.

Masalan, 2010-yilda kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,96 trln so‘m bo‘lib, umumiyl sanoatdagisi ulushi 6,8% ni tashkil etgan. 2023-yilda esa bu hajm 28,38 trln so‘mga yetganiga qaramasdan, umumiyl sanoatdagisi ulushi 4,3% gacha

⁹ Muallif tomonidan tuzilgan

pasaygan. Boshqacha aytganda, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi mutlaq ko‘rinishda sezilarli o‘sigan bo‘lsa-da, nisbiy ko‘rsatkich – ya’ni sanoatdagi ulushi kamaygan.



3-rasm. O‘zbekistonda 2010-2024-yillarda sanoat va kimyo sanoatining dinamikasi¹⁰

Shu nuqtai nazardan, kimyo sanoatining iqtisodiyotdagi o‘rnini baholashda faqatgina ishlab chiqarish hajmiga emas, balki tarmoqning tarkibiy rivojlanishidagi jarayonlarga ham e’tibor qaratish zarur. Masalan, 2016-yilda kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishda 132,7% o‘sish qayd etilgan bo‘lib, bu mamlakatda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini faol ishga tushirish, investisiya loyihibarini amalga oshirish bilan izohlanadi (3- rasm).

Shu bilan birga, mamlakatda aksiyadorlik jamiyatlari soni 2021-yilda 152 tani tashkil etgan bo‘lib, 2024-yilda 138 taga tushgan. Bu holat davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari sonida barqarorlik va muayyan darajada pasayish mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur pasayish, ehtimol, ayrim jamiyatlarning tugatilishi, qayta tashkil etilishi yoki xususiylashtirilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Lekin bu jarayon, aksar hollarda, korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish va korporativ shaffoflikni oshirish kabi islohotlar bilan hamohang ravishda kechmoqda.

Umumiy hisobda, davlat ishtirokidagi korxonalar soni 2021-yilda 622 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 1110 tagacha ko‘paygan, ammo 2024-yilda 798 taga kamaygan. Bu tendensiya mamlakatda davlat aktivlarini qisqartirish, ularni xususiylashtirish va davlat-xususiy sheriklik asosida qayta tashkil etish jarayonlari faol kechayotganini ko‘rsatadi. Hukumat tomonidan qabul qilingan 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy islohotlar konsepsiysi, xususan, davlat aktivlarini samarali boshqarish va iqtisodiyotda xususiy sektor ishtirokini oshirish strategiyasi ushbu raqamlarda o‘z aksini topmoqda (3-jadval).

3-jadval
O‘zbekistonda 2021-2024-yillardagi davlat ulushidagi korxonalar soni¹¹

Yillar	Davlat korxonalari	Aksiyadorlik jamiyatlari	Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar	Jami
2021	210	152	260	622
2022	219	155	699	1073
2023	165	157	788	1110
2024	106	138	554	798

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Tadqiqotda mamlakatimizdla faoliyat yuritayotgan kimyo sanoati tarmog‘idagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning uning moliyaviy faoliyatiga ta’sirini baholash uchun “Navoiyazot” AJ va “Farg‘onazot” AJlarining 2014–2024-yillarlagi moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida ekonometrik tahlili amalga oshirilgan. Kimyo sanoati tarmog‘idagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning uning moliyaviy faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarning belgilanishi quyidagichadir: $\ln Y_c$ – CAPM; $\ln Y_w$ – WACC; $\ln X_1$ – asosiy vositalar; $\ln X_2$ – uzoq muddatli investitsiyalar; $\ln X_3$ – debitorlik qarzlar; $\ln X_4$ – pul mablag‘lari; $\ln X_5$ – tovar-moddiy zahiralar; $\ln X_6$ – jami aktivlar; $\ln X_7$ – Invested capital (Investitsiya qilingan kapital); $\ln X_8$ – Capital employed (Foydalilanigan kapital); $\ln X_9$ – xususiy kapital; $\ln X_{10}$ – ustav kapitali; $\ln X_{11}$ – zahira kapitali; $\ln X_{12}$ – uzoq muddatli majburiyatlar; $\ln X_{13}$ – joriy majburiyatlar; $\ln X_{14}$ – mahsulot sotishdan tushum; $\ln X_{15}$ – yalpi foyda; $\ln X_{16}$ – davr xarajatlari; $\ln X_{17}$ – operatsion faoliyatdan olingan foyda (zarar); $\ln X_{18}$ – moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar; $\ln X_{19}$ – moliyaviy faoliyat xarajatlari; $\ln X_{20}$ – soliq to‘lagunga qadar foyda; $\ln X_{21}$ – sof foyda.

4-jadval

Pooled OLS estimator(POLSE) modeli bo‘yicha natijaviy va omil belgilarning ekonometrik tenglamasi

Source	SS	dF	MS	Number of obs	=	22
				F (3, 18)	=	14.83
Model	0.312306246	3	0.104102082	Prob > F	=	0.0000
Residual	0.126346653	18	0.007019259	R-squared	=	0.7120
				Adj R-squared	=	0.6640
Total	0.438652899	21	0.020888233	Root MSE	=	0.08378
Inyc	Coef.	Std. Err.	T	P > t	[95% conf. Interval]	
1nx11	0.1674061	0.0401612	4.17	0.001	0.0830305	0.2517817
1nx19	0.0518951	0.0114889	-4.52	0.000	-0.0760324	-0.0277578
1nx20	0.0208082	0.0114072	1.82	0.085	-0.0031575	0.0447738
Cons	-3.925694	0.4187503	-9.37	0.000	-4.805456	-3.045933

$$\ln Y_c = -3.92 + 0.16 * \ln X_{11} - 0.051 * \ln X_{19} + 0.02 * \ln X_{20} \quad (1)$$

4-jadvalga ko‘ra Pooled OLS estimator (POLSE) modeli tenglamaga ko‘ra omil belgilar mos ravishda 0.02, 1.28 va -1.02 qiymatlarini tashkil etgan, standart xatoliklar 0.16, 0.30 va 0.31 qiymatini tashkil etgan.

Tadqiqot doirasida panel ma’lumotlari asosidagi SEM- modeli tuzildi (4-rasm).


Panel ma’lumotlar asosida regression tenglamalar tuzilib, ichidan (OLS) quyidagi modellar saralab olindi:

$$\ln Y_c = -3.92 + 0.16 * \ln X_{11} - 0.051 * \ln X_{19} + 0.02 * \ln X_{20} \quad (2)$$

$$\ln Y_c = -0.23 + 0.05 * \ln X_{11} - 0.081 * \ln X_{17} - 0.106 * \ln X_3 \quad (3)$$

Ekonometrik tahlillarga ko‘ra, “Navoiyazot” AJ va “Farg‘onaazot” AJlarida zahira kapitalining 1 foizga oshishi CAPM ko‘rsatkichini 0,16foizga oshishiga,

moliyaviy faoliyat xarajatlarining 1 foizga oshishi CAPM ko‘rsatkichini 0,051 foizga kamayishiga olib keladi, soliq to‘lagunga qadar foydaning 1 foizga oshishi CAPM ko‘rsatkichini 0,02 foizga oshishi aniqlandi. Shuningdek, ceterus paribus sharoitida investisiya qilingan kapitalning 1%ga oshishi CARMni 0,081%ga pasaytirmoqda, debtorlik qarzlarining 1 foizga oshishi CAPM ko‘rsatkichini 0,106 foizga kamayishi aniqlandi. Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkin, korxona boqsharuviga, xususan korporativ boshqaruvni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish asosiy yo‘nalish sifatida tanlab olinishi zarurdir.



4-rasm. Tadqiqot bo‘yicha panel ma’lumotlari asosidagi SEM- modeli¹²


«O‘zkimyosanoat» aksiyadorlik jamiyatlarining Kengashlari faoliyatini baholash bo‘yicha anketa natijalarini asosiy komponentlar tahlili asosida amalga oshirilgan tahlil natijalari bizga 4 ta yashirin omil mavjud ekanligini aniqlash imkonini berdi. Tahlil natijalariga ko‘ra jami tanlangan 24 ta o‘zgaruvchilarning o‘zaro dispersiyasi natijalariga ko‘ra, o‘zaro bog‘liq 4 ta komponentda yashirin omillar mavjudligi va ular o‘rtasida quyidagicha dispersiya mavjudligi aniqlandi. Tahlil natijasida to‘rtta yashirin omil aniqlandi va ularning o‘zaro bog‘liqligi korrelyasiya matrisasi orqali tahlil qilindi. Yashirin omil (F1) - Kengashning boshqaruv samaradorligi ta’sir doirasi, (F2) - Kengashning operasion faoliyatga ta’sir doirasi, (F3) - Kengashning taftish funksiyasi hamda (F4) – Kengashga raqamli texnologiyalarning ta’sir doirasidir.

Ushbu omillar asosida SmartPLS 4.0 dasturi yordamida SEM modelida PLS algoritmi tuzildi. Bu model Kuzatuv kengashi faoliyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni tasniflash, ularning o‘zaro munosabatlari va ta’sirini baholash imkonini beradi. Asosiy e’tibor F1 — Kimyo sanoati korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligiga qaratildi. SmartPLS 4.0 dasturi asosida tuzilgan yo‘l diagrammasi orqali qolgan omillarning mazkur strategiyaga ta’siri aniqlandi.

Tahlil natijalaridan ma’lumki, korporativ boshqaruv tizimida kengashlarning operasion faoliyati samarali yo‘lga qo‘yilmagan va Kengash majlislarining asosiy faoliyati mavjud holatga baho berish bilan cheklanadi. «O‘zkimyosanoat» aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruv tizimida PSL-SEM algoritmi asosida Kengash operasion faoliyatining salbiy ($F_2 = -0,289$), Kengashning taftish

¹²Muallif ishlanmasi

funksiyasi ijobiy ($F_3=0,166$), Kengashga raqamli texnologiyalarning ta'sir doirasi salbiy ($F_4=-0,203$) ta'sirlarini aniqlash orqali kuzatuv kengashining boshqaruv darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi yashirin omillarni tartibga solish taklifi asoslangan (5-jadval).



5-rasm. Kimyo sanoati korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligiga¹³ ta'sir etuvchi yashirin omillarning PSL-SEM modeli¹⁴

Tadqiq etilayotgan kimyo sanoatidagi aksiyadorlik jamiyatlarida faqatgina Zoom platformalaridan foydalanilayotgani ma'lum, shu sababdan ushbu korxonalarga zamonaviy raqamli platformlarni tadbiq etish zarur.

5-jadval

Yo'lloeffisiyentlari/ Jami samara¹⁵

Yashirin o'zgaruvchilar	Yo'lloeffisiyentlari
$F_2 \rightarrow F_1$	-0,289
$F_3 \rightarrow F_1$	0,166
$F_4 \rightarrow F_1$	-0,203

Ekonometrik tahlil natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, «O'zkimyosanoat» AJ korporativ boshqaruv tizimida Kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini oshirish uchun, avvalo, raqamli platformlardan foydalanishni tadbiq etish mexanizmlarini yaratish hamda strategik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilish bo'yicha aniq mezon va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchi bob «Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish» deb nomlanib, unda aksiyadorlik jamiyatlarini korporativ boshqaruvida raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari keltirilgan, kimyo sanoat korxonalarida korporativ munosabatlar ishtiroychilari o'rtaida raqamli platforma orqali samarali hamkorlikni tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan,

¹³ Muallif ishlchanasi

¹⁴ SmartPLS paket dasturi asosida olingan natijalar.

¹⁵ SmartPLS paket dasturi asosida olingan natijalar.

“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatni korporativ boshqaruvini raqamlashtirish asosida 2030-yilgacha rivojlanish prognoz ssenariylari ishlab chiqilgan.

